

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.08/2025.27.12.V.11.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

BERDIYEV XUSHNUD RAVSHANOVICH

**TOVUQ FUZARIOTOKSIKOZINING SAMARQAND VILOYATI
PARRANDACHILIK XO'JALIKLARIDA DIAGNOSTIKASI VA
PROFILAKTIKASI**

16.00.03 - veterinariya mikrobiologiyasi, virusologiyasi, epizootologiyasi, mikologiyasi,
mikotoksikologiyasi va immunologiyasi.

**veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по ветеринарным наукам**

**Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD)
on veterinary sciences**

Berdiyev Xushnud Ravshanovich

Tovuq fuzariotoksikozining Samarqand viloyati parrandachilik xo'jaliklarida
diagnostikasi va profilaktikasi.....3

Бердиев Хушнуд Равшанович

Диагностика и профилактика фузариотоксикоза кур в птицеводческих
хозяйствах Самаркандской области.....21

Berdiev Xushnud Ravshanovich

Diagnosis and prevention of chicken fusarium toxicosis in poultry farms of the
Samarkand region41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works45

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.08/2025.27.12.V.11.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**


BERDIYEV XUSHNOD RAVSHANOVICH

**TOVUQ FUZARIOTOKSIKOZINING SAMARQAND VILOYATI
PARRANDACHILIK XO'JALIKLARIDA DIAGNOSTIKASI VA
PROFILAKTIKASI**

16.00.03 - veterinariya mikrobiologiyasi, virusologiyasi, epizootologiyasi, mikologiyasi,
mikotoksikologiyasi va immunologiyasi.

veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI



Samarqand – 2026

Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/187 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.ssuv.uz) va "ZiyoNet" axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Salimov Xait Salimovich
veterinariya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mamadullayev Gulmurod Hamidovich
veterinariya fanlari doktori, professor

Bozorov Xayrillo Kengashevich
veterinariya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi
I.M.Isayev nomidagi mikrobiologiya, virusologiya,
yuqunqli va parazitlar kasalliklari ilmiy tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.V.11.01 raqamli Ilmiy kengashning 2-aprel 2026-yil 14359 raqamli majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M. Ulug'bek ko'chasi, 77 uy. Tel.faks: (99855) 707-76-86; e-mail: ssuv@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14359 raqamli bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M. Ulug'bek ko'chasi, 77 uy. Tel.faks: (99855) 707-76-86).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 2-aprel kuni tarqatildi.
(2026-yil 2-apreldagi №10- raqamli reestr bayonnomasi).



X.B.Yunusov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, b.f.d., professor

K.X.Urokov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, v.f.d., PhD.

Q.N.Norboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, v.f.d.,
professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. So'nggi yillarda parrandachilik Respublikamizning jadal rivojlanayotgan sohaslaridan biri bo'lib, xalqimizni ekologik toza go'sht, tuxum va boshqa mahsulotlarga bo'lgan talabini qondirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Parrandalarni saqlash va oziqlantirishning resurs tejamkor texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy qilish hamda mahsulot birligiga sarf xarajatlarni kamaytirish, fermer, shaxsiy yordamchi xo'jaliklarining tovuqchilik fermalarida va shaxsiy xonadonlarida almashinmaydigan to'shamalar sharoitida asrash, nam va mog'orlagan omuxta yem bilan oziqlantirayotgan broyler va boshqa jo'jalar orasida fuzariotoksikozning uchrab turishi jo'jalarning o'sish-rivojlanishdan ortda qoldirib, ba'zan o'lim holatlari kuzatilishi qayd etilmoqda. Shulardan kelib chiqib mahalliy sharoitimizda parranda fuzariotoksikozini zaharsizlantirish, davolash va oldini olish kabi dolzarb vazifalar bajarilmoqda.

Dunyo miqyosida parrandachilik sohasida yuqori ko'rsatkichlarga erishishda infeksiyon kasalliklarning samarali immunoprofilaktikasi asosiy o'rinni egallaydi. Barcha sanoatlashgan parrandachilik xo'jaliklarining immunoprofilaktik tadbirlar rejasida fuzariotoksikoz kasalligining immunoprofilaktikasi asosiy vazifa ekanligi ma'lum. Jahon hayvonlar sog'lig'ini saqlash tashkiloti (JHSST)ning ma'lumoti bo'yicha, ayrim davlatlarda hayvonlarning infeksiyon kasalliklari ichida parrandalarning yuqori patogen grippi va Nyukasl kasalligi qayd qilinayotganligi xavotirlidir. Albatta ushbu kasalliklar, yovvoyi parrandalar migratsiya qilishi orqali transchegaraviy tarqalishi mumkin. Shuning uchun ham infeksiyon kasalliklarning samarali immunoprofilaktikasi dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida parrandachilikni jadal rivojlantirish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bunda parrandalar bosh sonini va mahsuldorligini ko'paytirish, shuningdek parrandalarning turli xil kasalliklarini oldini olish hamda parrandachilikni rivojlantirishda tizimli tadbirlarni yo'lga qo'yilishiga erishildi. Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra tovuqlar orasida fuzariotoksikoz bilan zararlanish ko'rsatkichlari yuqori bo'lib, parrandachilik xo'jaliklarida sezilarli darajada iqtisodiy zarar kuzatiladi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, parrandachilikni rivojlantirish, chorvachilik mahsulotlariga (go'sht, sut, tuxum) bo'lgan talabni qondirish maqsadida hukumatimiz tomonidan parrandachilik sohasida faqatgina tovuq yetishtirish bilan cheklanib qolmasdan, boshqa parranda turlari, xususan, kurka, bedana, g'oz, o'rdak, tuyaqush va kaklik yetishtirishni ham ommalashtirish davr talabi bo'lganligi sababli bir qator qarorlar ishlab chiqilgan.

Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-noyabrda gi «Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4015-sonli qarori¹, 2022-yil 8-fevralda gi "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026-yillarga mo'ljallangan dasturi tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-120-son

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-noyabrda gi «Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4015-sonli qarori.

qarori, 2023 yil 28 fevraldagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-27-son farmoni, 2022-yil 15-iyundagi PQ-281-son «Parrandachilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2024-yil 27-iyundagi PQ-238-son «Parrandachilik sohasini yanada qo'llab quvvatlash, zamonaviy genetik texnologiyalar va kooperatsiya tizimini joriy etish chora tadbirlari to'g'risida»gi farmoni hamda mazkur sohaga tegishli boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, suv muammolari, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan. Shuningdek bajarilishi 2024-2025 yillarga mo'ljallangan, Innovatsion rivojlantirish agentligi huzuridagi Jahon banki ishtirokidagi "O'zbekiston milliy innovatsion tizimini modernizatsiya qilish" Xalqaro loyiha doirasida, RSP dasturining "INNOPROVET probiotigini veterinariya sohasida sanoat usulida ishlab chiqarish va tijoratlashtirish" loyihasi doirasida (03-oktabr 2024-yil B-03/K) bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Parrandalar fuzariotoksikozining tarqalishi, klinik belgilari, patomorfologik o'zgarishlari, tashxislash, davolash va qarshi kurash muammolari bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar bir qator xorijiy olimlar, jumladan Lusky K., Raina J.C., Surai K.P., Burkin A.A., Daminov R, Kononenko G.P., Kuznesov A.F, Papazyan T. va boshqalar tomonidan olib borilgan hamda ilmiy jihatdan asoslangan nazariy va amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Respublikamiz olimlari tomonidan Fuzariotoksikozga oid tadqiqotlar nisbatan kam o'tkazilgan bo'lib, so'nggi yillarda tadqiqotlarimizda foydalanilgan preparatlar bo'yicha X.S.Salimov, Z.B.Mamatova, Sh.N.Nasimov hamda mikotoksikozlar mavzuida H.Z.Ibragimov, M.S.Habibov, E.E.Ibragimov va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Tovuqlar fuzariotoksikozining diagnostikasi va profilaktikasi hamda oldini olish va davolashda samarali vositalar bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ilmiy tadqiqoti Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti ilmiy ishlar rejası va Samarqand tumanidagi "Mironqul agrozoovetservis ilmiy-amaliy markazi" MChJ bilan 2021-yil 26-fevraldagi №5-son ilmiy-amaliy hamkorlik shartnomasi hamda 2024-2025-yillarga mo'ljallangan, RSP dasturining "INNOPROVET probiotigini veterinariya sohasida sanoat usulida ishlab chiqarish va tijoratlashtirish" loyihasi doirasi (03-oktabr 2024-yil B-03/K) asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Samarqand viloyati parrandachilik xo'jaliklarida tovuq fuzariotoksikozining epizootologik holati, tarqalish darajasini o'rganish, kichik parrandachilik fermalarida, shaxsiy xonadonlarda jo'jalarni parvarishlashda, fuzariotoksikozning diagnostikasi va profilaktika maqsadida antioksidant dori moddalari va mahalliy probiotik Innoprovetni sinovdan o'tkazish.

Tadqiqotning vazifalari:

Samarqand viloyati parrandachilik xo'jaliklarida tovuqlar fuzariotoksikozining tarqalishi va diagnostikasini o'rganish;

tovuq fuzariotoksikozining oldini olishda antioksidant dori moddasi va mahalliy "Innoprovet" probiotigining samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlash;

antioksidant dori moddasini qo'llaganda jo'jalar organizmidagi gematologik va biokimyoviy o'zgarishlarini aniqlash;

"Innoprovet" probiotigini qo'llaganda jo'jalar organizmidagi gematologik va biokimyoviy o'zgarishlarini aniqlash;

tovuqlar fuzariotoksikozini oldini olishda antioksidant dori moddasi va mahalliy "Innoprovet" probiotigining samaradorligi aniqlash va unga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida "O'ramas Parranda" fermer xo'jaligi, "Sam Delfin" parrandachilik fermer xo'jaligi, "Mironqul Agrozoovet servis ilmiy-amaliy markazi" MChJ, "Muhabbat-Sarvar Fayz tovuq" MChJ, "San'at Cheken Gold" fermer xo'jaligi, "Baxt Parranda Kelajagi" parrandachilik fermer xo'jaligi, "Darg'om Parranda Fayz" MChJning va parrandachilik fermer xo'jaligida hamda aholi qaramog'ida parvarishlanayotgan parrandachilik fabrikalariga qarashli Ross-308 krossiga mansub broyler jo'jalari olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib, Ross-308 krossiga mansub broyler jo'jalari, ularning ichki organlari, axlat namunalari, qon namunalari, qon zardoblari, antioksidant "Tokso-bond" dori moddasi va mahalliy "Innoprovet" probiotigi xizmat qilgan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarda refraktometrik, elektroforez, immunologik usullari, IgM va IgG miqdorini aniqlashda Manchining immunodiffuziya usuli, immunoserologik tahlil, gemagglyutinatsiyani tormozlash reaksiyasi (GATR) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Samarqand viloyatining ayrim tumanlarida tekshirilgan tovuq va jo'jalarda fuzariotoksikoz tarqalganligi mos ravishda tovuqlarda 15% va jo'jalarda 32% holatlarda aniqlangan;

omixta yem va oziqabop qo'shimchalarni nam sharoitda saqlash fuzarium zamburug'ining rivojlanishi hamda parrandalarni ushbu zamburug' tomonidan ajraladigan zaharli moddalar bilan zararlanishi asosiy omil bo'lishi aniqlangan;

broyler jo'jalarining fuzariotoksikozida loxaslik, ishtaxaning keskin pasayishi, shilimshiqli ich ketish, patlarining hurpayishi, harakat koordinatsiyasining buzilishi, konyuktivit kabi klinik, og'iz bo'shlig'idagi nekrotik jarayonlar, oshqozon va ichak shilliq qavat nekrozi va qon quyilishlar, jigarda distrofik o'zgarishlar kabi patologoanatomik o'zgarishlar aniqlangan;

fuzarium zamburug'i oddiy oziqa muhitlarida o'smasligi, Suslo agarida oqimtir pushti rangdagi 4-6 sm kattalikdagi momiq sifat koloniya hosil qilib o'sishi aniqlangan;

fuzariotoksikozni davolash maqsadida antioksidant dori vositasi "Tokso-bond" preparati omixta yemga 1 kg ga 1,0 gr miqdorda 10 kun davomida uzluksiz berish 93-95 % samara berishi aniqlangan;

jo'jalar fuzariotoksikozining profilaktikasida mahalliy "Innoprovect" probiotigini 1 litr suvga 1 ml miqdorda 10 kun davomida ichirish fuzariotoksikozni oldini olishda 95-100% gacha samara berishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tovuqlar va jo'jalar uchun oziqalarni namligini ortishi, parrandalar saqlanadigan binolarda havoning me'yor darajasida almashinmasligi, haroratning ko'tarilishi oziqalarda Fuzarium zamburug'larini rivojlanib ko'payishiga, ushbu oziqalar bilan oziqlantirilgan jo'ja va tovuqlar fuzariotoksikoz bilan kasallanishiga sabab bo'lishini aniqlash va oldini olish chora-tadbirlarini qo'llash evaziga ushbu patologiyani barvaqt diagnostika qilish va oldini olishga erishilgan.

parrandalarga berilayotgan konsentrat oziqalar va turli donli oziqalardan fuzariotoksikoz oqibatida o'lgan jo'jalar gavdasidan olingan patologik materiallardan foydalanib, zamonaviy laboratoriyalarda bakteriologik tekshiruvlar (Nutricni agar, Shaidtser agar, Muller Hinton agar, Suslo agar, kartoshka agar kabi oziqa muhitlaridan foydalanilgan holda) orqali ishonchli diagnoz qo'yish usuli ishlab chiqilgan va differentsiatsiya qilish yo'lga qo'yilgan;

fuzariotoksikoz bilan xo'jalik sharoitida kasallangan jo'jalarga 7 kunligidan boshlab yangi antioksidant dori vositasi "Tokso-bond" preparatlaridan 1 kg omuxta yemga 1 gr miqdorida 10 kun davomida qo'llanilgan. Preparat berib borilganidan 3-5 kunlaridan boshlab jo'jalarda o'lim holatlari kuzatilmasdan, ulardagi o'zgarishlar ijobiy tarafdagi o'zgariganligi, davolashda ushbu preparat orqali 93-95 % terapevtik samaradorlikka erishilgan.

xo'jalik sharoitida yangi antioksidant "Tokso-bond" dori vositasini qo'llab, 93-95 % terapevtik samaradorlikka hamda jo'jalarning tirik qolishiga erishilgan. Davolangan jo'jalarning o'rtacha tirik vazni 705 gr ni tashkil etib, boshqa guruhlariga nisbatan 130 gr yuqori vazn olishga erishilgan.

"INNOPROVET" mahalliy probiotik preparati suspenziyasi 1 ml ($1,0 \times 10^9$ KIIB) 1 litr ichimlik suviga aralashtirib berilganda, jo'jalarning fuzariotoksikoziga qarshi profilaktik xususiyatlariga ega ekanligi aniqlangan. Probiotik berilgan broyler jo'jalarida moddalar almashinuvi jarayonini kuchayganligi natijasida tana vaznining ortishi, o'limi (chiqimi) soni avvaligiga nisbatan kamayganligi aniqlangan. INNOPROVET qabul qilgan jo'jalarning go'sht mahsuldorligi nazoratga nisbatan 12% gacha oshganligi tajribalarda aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi izlanishlarning zamonaviy uslub va vositalardan foydalangan holda o'tkazilganligi, epizootologik, klinik, patologoanatomik, gematologik, biokimyoviy, bakteriologik, immunologik va kimyoviy usullardan foydalanib, boshlang'ich ma'lumotlarga biometrik ishlov berilganligi, shuningdek olingan nazariy natijalarning tajriba ma'lumotlari bilan to'g'ri kelishi, tadqiqot natijalarining xorijiy va mahalliy tajribalar bilan taqqoslanganligi hamda datolatnomalarga asoslanganligi, olingan natijalarning mutaxassislar tomonidan tasdiqlab ijobiy baholanganligi hamda Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti aprobat siya komissiyasi tomonidan ilmiy-tadqiqot natijalari ijobiy baholanib, ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati fuzariotoksikozni tovuqlar va jo'jalar uchun oziqalarni namligini ortishi, parrandalar saqlanadigan binolarda havoning me'yor darajasida almashinmasligi, haroratning ko'tarilishi ozuqalarda Fuzarium zamburug'larini rivojlanib ko'payishiga, ushbu ozuqalar bilan oziqlantirilgan jo'ja va tovuqlar fuzariotoksikoz bilan kasallanishiga sabab bo'lishini aniqlash va oldini olish chora-tadbirlarini qo'llash evaziga ushbu patologiyani barvaqt diagnostika qilish va oldini olishni ilmiy asosda aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati fuzariotoksikoz bilan xo'jalik sharoitida kasallangan jo'jalarga "Tokso-bond" preparatlaridan 1 kg omixta yemga 1 g miqdorida 10 kun davomida qo'llanilib ulardagi o'zgarishlar ijobiy tarafdagi o'zgarganligi, davolashda ushbu preparat orqali 100 % terapevtik samaradorlikka erishilgan va "INNOPROVET" mahalliy probiotik preparati suspenziyasi 1 ml ($1,0 \times 10^9$ KHB) 1 litr ichimlik suviga aralashtirib berilganda, jo'jalarning fuzariotoksikoziga qarshi profilaktik samaradorligi yuqori bo'lishi ilmiy asoslanganligi va amaliy tavsiyalar berilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tovuq fuzariotoksikozining parrandachilik xo'jaliklarida diagnostikasi va profilaktikasi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

"Broyler jo'jalarni parvarishlash, ularda uchraydigan fuzariotoksikozning diagnostikasi va profilaktikasi" bo'yicha tavsiyanomatasdiqlangan, Samarqand viloyatining parrandachilik xo'jaliklariga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025-yil 1-dekabrda № 02/23-883-son ma'lumotnomasi). Ushbu tavsiyalarni qo'llash evaziga tovuqlar fuzariotoksikoz bilan zaharlanishining oldini olishga erishilgan;

tovuqlar fuzariotoksikozini davolash va oldini olish uchun "Tokso-bond" (1 kg omixta yemga 1 g) absorbent dori qo'llash usuli ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025-yil 1-dekabrda № 02/23-883-son ma'lumotnomasi). Natijada tovuqlar fuzariotoksikoziga qarshi kurash va oldini olishda yuqori samaradorlikka erishilgan;

tovuq fuzariotoksikozini davolash va oldini olishda "Innoprovot" probiotigini (1 litr suvga 1 ml) qo'llanilishi natijasida, ayniqsa yosh jo'jalarda ichaklar funksiyasini tiklaydi, immunitetni mustahkamlaydi, toksinlarni so'rilishini kamaytiradi, o'sishini 12-20 % ga oshiradi, ozuqa o'zlashtirilishini yaxshilaydi, vazn ortishini tiklaydi. Natijada parrandalar fuzariotoksikozni tovuq va jo'jalarda samarali davolash va oldini olish imkoniyati yaratilgan; (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025-yil 1-dekabrda № 02/23-883-son ma'lumotnomasi). Ushbu kompleks davolash usullarini qo'llanilishi evaziga, bir ming (1000) bosh broyler jo'jalarini o'sish davrida (6-20-kunlar) parvarishlashda fuzariotoksikozni kimyoprofilaktikasi uchun tavsiya etilgan dori vositasi qo'llanilganda iqtisodiy samaradorlik 2808000 (ikki million sakkiz yuz sakkiz ming) so'mni tashkil etib, 1 so'm veterinariya xarajatiga samaradorlik 5,0 (besh) so'mni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur ilmiy tadqiqotlar natijalari 7 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjuman (konferensiya)larida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda: 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda, 2 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'planida chop etilgan. 1 ta tavsiyanoma chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyani hajmi 109 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati, mavzuning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Adabiyotlar ma'lumotlari tahlili**» deb nomlangan birinchi bobi uch qismga bo'lingan bo'lib, mazkur bobning «Tovuq fuzariotoksikozning qo'zg'atuvchilari, kechishi, klinik belgilari, patologoanatomik o'zgarishlari va diagnostikasi» deb nomlangan birinchi qismida parrandalar organizmida fuzariotoksikozning qo'zg'atuvchilari yuqish omillari va sabablari, fuzariotoksikozning parrandalar organizmida kechishi, klinik belgilari, patologoanatomik o'zgarishlari va diagnostikasi jumladan BMT ning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) bahosiga ko'ra, har yili dunyo bo'yicha yetishtiriladigan donning taxminan 25 foizi mikotoksinlar bilan zararlaniishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

«Tovuq fuzariotoksikozining profilaktikasida qo'llaniladigan dori vositalari va qarshi kurashish usullari» deb nomlangan ikkinchi qismida ayrim mualliflar fikrchi, fuzariotoksikozni oldini olish shartlaridan birinchisi don va uni qayta ishlash mahsulotlarini to'g'ri yig'ish va saqlashni tashkil etilganligi va donning chidamliligini oshirish uchun uni tozalash, quritish, faol shamollatish, hasharotlarga qarshi profilaktika va yo'q qilish choralarini ko'rish, saqlash rejimlarini nazorat qilish kerakligi: past namlik (12-14%), harorat 20-30 °C oralig'ida bo'lishi aytilgan. Ishlatiladigan usullarni shartli ravishda ikki guruhga fizik va kimyoviy, ko'pincha bir-biri bilan birgalikda qo'llanilishi (adsorbsiya-profilaktika usuli alohida ko'rib chiqilishi kerak). Jismoniy usullar: issiqlik bilan ishlov berish va bug'lash, ekstrudirovka qilish, avtoklavlash yoki pishirish allaqachon zararlangan ozuqalarni zararsizlantirish uchun ko'proq qo'llaniladi.

Ozon, etilen oksidi, ammiak gazi, ammoniy tuzlari va boshqalar mikotoksinlarni yo'q qilishi bayon etilgan.

"Tovuq fuzariotoksikoziga antioksidant moddalar va probiotiklarning ta'sir xususiyatlari" deb nomlangan uchinchi qismida parrandalar ratsionida antibiotiklardan foydalanishning cheklanishi va butunlay taqiqlanishi, ularni yuqori antibakterial ta'sirga ega bo'lgan fitobiotik preparatlar bilan almashtirish, fitobiotik komplekslarning xilma-xilligi sababli, ularning qo'llanishidan olinadigan biologik ta'sir ham bir xil bo'lmasligi.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqotlar materiallari va uslublari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot joyi, ob'ekti va uslublari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning ob'ekti bo'lib "O'ramas Parranda" fermer xo'jaligi, "Sam Delfin" parrandachilik fermer xo'jaligi, "Mironqul Agrozoovet servis ilmiy-amaliy markazi" MChJ, "Muhabbat-Sarvar Fayz tovuq" MChJ, "San'at Cheken Gold" fermer xo'jaligi, "Baxt Parranda Kelajagi" parrandachilik fermer xo'jaligi, "Darg'om Parranda Fayz" MChJning va parrandachilik fermer xo'jaligida va aholi qaramog'ida parvarishlanayotgan parrandachilik fabrikalariga qarashli Ross-308 krossiga mansub broyler jo'jalarida olib borilgan.

Tadqiqot ishlari 2023-2025-yillar davomida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrasidagi veterinariya laboratoriyasida va Samarqand viloyatining ayrim tuman xo'jaliklarida bajarildi. Ilmiy tadqiqotlar jarayonida profilaktika qilish vositalari tanlanib, profilaktik vositalar broyler jo'jalarining organizmiga ta'sirini o'rganish va iqtisodiy samaradorligini aniqlash bo'yicha ilmiy va ilmiy-xo'jalik tajribalari o'tkazildi.

Ozuqaning mikologik tadqiqotlari va zamburug' toksikligini aniqlash "Sanitariya mikologik baholash va ozuqa sifatini yaxshilash bo'yicha ko'rsatmalar" va "Ozuqa, ozuqa qo'shimchalari va ozuqa ishlab chiqarish uchun xom ashyodagi mikroskopik zamburug'larni ajratish va miqdorini aniqlash bo'yicha ko'rsatmalar"ga muvofiq amalga oshirildi.

Zamburug'lar kulturalari Petri idishlarida 22-25°C haroratda 7-10 kun davomida o'stirishga qo'yildi. Zamburug'larning o'sgan koloniyalari 3-5-10-kunlari kuzatib borildi. Keyinchalik ularning toksigenlik va patogen xususiyatlarini o'rganish uchun ajratilgan barcha turlar sof kulturalarga ajratilishi hisobga olindi.

Sam-Delfin parrandachilik fermasi sharoitida o'tkazilgan broyler jo'jalarini ishlab chiqarish tajribasida kombikorm tabiiy ravishda bir nechta fuzariotoksinlar bilan ifloslantirildi (T-2 toksin, oxratoksin A, zearalenon, fumonizin B1).

Profilaktika maqsadida tajribadagi jo'jalarga quyidagi preparatlar qo'llanildi: antioksidant xususiyatiga ega bo'lgan Janubiy Koreya davlatida ishlab chiqarilgan absorbent Tokso Bond vositasi xamda mahalliy probiotik Innoprovet.

Gematologik tekshirishlarda 1 mkl qonda eritrotsit va leykotsitlar soni Goryaev to'rida to'g'ridan-to'g'ri sanash orqali, bo'yalgan qon surtmalarida turli leykotsitlarning foizdagi ko'rsatikichlari (leykogramma) hamda yangi olingan qondagi gemoglobin miqdori Sali usulida aniqlandi.

Qon surtmasining har xil qismlarida leykotsitlarning foiz ko'rsatkichlari (leykogramma) Filipchenko usulida aniqlandi. Surtmalar yorug'lik mikroskopida immersion yog' ostida ko'rildi (obyektiv 90, okulyar 10).

Biokimyoviy tekshirishlar uchun qon tajribadagi jo'jalardan tadqiqotlarning boshida, o'rtasida va oxirida olindi. Qon ertalabki oziqlantirishgacha jo'jalarning qanot osti venasidan olindi. Qon zardobida jo'jalarning asosiy biokimyoviy ko'rsatkichlari aniqlandi. Qondagi umumiy oqsil miqdori IRF-22 refraktometri yordamida Reyss usulida aniqlandi. Bu usul qon zardobining yorug'lik sindiruvchi xususiyatini distilangan suvga nisbatan ko'rsatkichini aniqlashga asoslangan. Qon zardobidagi oqsil fraksiyalari mavjudligi Olla va Makkarda usulining Kornoka kirgizgan o'zgarishlari asosida aniqlandi.

Dissertatsiyaning «**Xususiy tadqiqotlar natijalari**» deb nomlangan uchinchi bobining "Urgut tumanidagi parrandachilik xo'jaliklarida tovuqlar fuzariotoksikozining tarqalish omillari va diagnostikasi" deb nomlangan birinchi qismida omixta yemlar va ozuqabop qo'shimchalar hamda patologik materiallar Urgut tumanidagi «O'ramas parrandachilik» fermer xo'jaligida nobud bo'lgan parrandalarning jasadidan foydalinildi.

Mikrobiologik tekshirish natijasida Fuzarium avlodiga mansub o'zidan mikotoksin ishlab chiqaruvchi zamburug' mavjudligi aniqlandi, bu konsentrat yem bilan «O'ramas parrandachilik» xo'jaligidagi tuxum yo'nalishidagi tovuqlar oziqlantirildi. Ushbu zamburug' bilan zararlangan konsentrat yemdan olingan namuna xamda fuzariotoksikoz kasalligiga gumon qilingan tovuqlardan olingan patologik materiallar (jigar, buyraklar, taloq bo'lakchalari, oshqozon va ichaklardagi hazmlanuvchi oziqalar) Chapek agar ozuqa muhitiga ekilgandan so'ng, oqimtir-sarg'ish, pushti va to'q sarg'ish rang, baxmalsimon tusdagi koloniyalar ko'zga tashlandi. «O'ramas parrandachilik» xo'jaligidagi konsentrat oziqalardan, shuningdek fuzariotoksikoz bilan kasallanib o'lgan tovuq va jo'jalarning jasadidan patologik namunalardan Fusarium avlodiga mansub sof kulturani ajratishga erishildi.

«O'ramas parrandachilik» xo'jaligida bizni o'z vaqtida yemning zamburug'lar bilan zararlanganligi haqida ogohlantirishganligi tufayli, zararlangan yemni berishni to'xtatish to'g'risida keskin choralar ko'rildi, fuzarium mikotoksinlari ta'sirida tovuq tuxumdonlarida va tuxumlarning o'zida patologik jarayon boshlang'ich fazada ekanligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning "Oqdaryo, Tayloq va Samarqand tumanlaridagi parrandachilik xo'jaliklarida tovuqlar fuzariotoksikozining tarqalish omillari va diagnostikasi" deb nomlangan uchinchi bobida parrandalarda klinik, gematologik, profilaktik tekshirishlar asosida, ularda moddalar almashinuvi buzilishlarini, mahsuldorlik va immun tizimining pastligi hamda kasalliklarga tez chalinish holatlari aniqlandi. Ushbu patologiyalarning oldini olish uchun Innoprovet probiotigining ta'sir mexanizmi tajriba sinovlarida o'rganildi.

Tovuq va jo'jalar almashinmaydigan to'shamalar sharoitida asralib, nam va mog'orlagan omixta yem bilan oziqlantirilayotgan broyler va boshqa jo'jalar orasida fuzariotoksikoz uchrayotganligi, bunda jo'jalarning o'sish, rivojlanishdan ortda qolayotganligi hamda ba'zan o'lim holatlari kuzatilayotganligi aniqlandi.

Ushbu patologiyalarning oldini olish uchun zamburug'larga qarshi samarali "Tokso-bond" dori vositasi hamda SamDVMChBU da ishlab chiqarilgan ekologik toza "INNOPROVET" probiotigi ta'sir mexanizmi tajriba sinovlarida o'rganildi.

"Innoprovect" mahalliy probiotik preparati suspenziyasi 1 ml ($1,0 \times 10^9$ KHB) 1 litr ichimlik suviga aralashtirib berilganda, jo'jalarning fuzariotoksikoziga qarshi profilaktik xususiyatlariga ega ekanligi aniqlandi. Probiotik berilgan broyler jo'jalarda sezilarli darajada o'zgarishlar kuzatildi. Jo'jalarda moddalar almashinuvi jarayonini kuchayganligi natijasida tana vazni ortdi, o'limi (chiqimi) avvalgiga nisbatan kamaydi. Jo'jalarimizning go'sht mahsuldorligini hisoblaganimizda o'rtacha tirik vazni 720 gr ni tashkil etib, yuqori ko'rsatkich namoyon qildi.

Fuzariotoksikoz bilan xo'jalik sharoitida kasallangan jo'jalarga 7 kunligidan boshlab yangi antioksidant dori vositasi "Tokso-bond" preparati 1 kg omixta yemga 1 gr miqdorida 10 kun davomida qo'llanildi. Preparat berib borilganidan 3-5-kunidan boshlab jo'jalarda o'lim holatlari kuzatilmadan, jo'jalar sog'lomligicha qoldi, ya'ni 100 % samaradorligi aniqlandi.

Ushbu bobning «Istixon, Kattaqo'rg'on va Pastdarg'om tumanlaridagi parrandachilik xo'jaliklarida tovuqlar fuzariotoksikozining tarqalish omillari va diagnostikasi» deb nomlangan uchinchi bo'limida tovuq va jo'jalar almashinmaydigan to'shamalar sharoitida asralib, nam va mog'orlagan omixta yem bilan oziqlantirilayotgan broyler va boshqa jo'jalar orasida fuzariotoksikozning uchrayotganligi, bunda jo'jalarning o'sish, rovojlanishdan ortda qolayotganligi hamda ba'zan o'lim holatlari kuzatilayotganligi aniqlandi. Ushbu patologiyalarning oldini olish uchun zamburug'larga qarshi samarali "Tokso-bond" dori vositasining ta'sir mexanizmi tajriba sinovlarida o'rganildi.

7-20 kunlik fuzariotoksikoz bilan xo'jalik sharoitida kasallangan jo'jalarga 7 kunligidan boshlab antioksidant dori vositasi "Tokso-bond" preparatidan 1 kg omixta yemga 1 gr miqdorida 10 kun davomida qo'llanildi. Preparati berib borilganidan 3-5 kunlaridan boshlab jo'jalarda o'lim holatlari kuzatilmadan, 100 % samaradorlikka erishilganligi isbotlandi.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, xo'jalik sharoitida yangi absorbent "Tokso-bond" dori vositasini qo'llab, 100 % terapevtik samaradorlikka hamda jo'jalar tirik qolishiga erishilgan. Davolash ishlari olib borilgan jo'jalarning o'rtacha tirik vazni 705 g ni tashkil etib, mahsuldorlik ko'rsatkichlari ham oshdi.

Dissertatsiyaning «**Tovuq fuzariotoksikozining oldini olishda antioksidant dori moddasi va mahalliy Innoprovect probiotigining samaradorlik ko'rsatkichlari**» deb nomlangan to'rtinchi bobida Tokso-bond absorbent dori vositasini jo'jalarning spontan fuzariotoksikozida profilaktik va davolovchi ta'siri va Tokso-bond dori moddasi qo'llaganda jo'jalar organizmidagi gematologik va biokimyoviy o'zgarishlar, "Innoprovect" probiotigini qo'llaganda jo'jalar organizmidagi gematologik va biokimyoviy o'zgarishlar, tovuq fuzariotoksikozini profilaktikasida samarali usul va vositalarni sinovdan o'tkazish va tadqiqotlar natijalarining iqtisodiy samaradorligi kabi qismlarga bo'lingan holda yoritib berilgan.

Ushbu bobning "Tokso-bond antioksidant dori moddasi sinovdan o'tkazish natijalari" qismida jo'jalarning spontan fuzariotoksikozida profilaktik va

davolovchi ta'siri Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on, Urgut va Samarqand tumanlaridagi parrandachilik fermer xo'jaliklari va aholi xonadonlarida o'rganildi. Jo'jalardagi tadqiqotlarni o'tkazishda klinik, patologoanatomik, bakteriologik usullardan foydalanildi. Tajriba uchun 1-20 kunlik 30 bosh fuzariotoksikoz bilan xo'jalik sharoitida spontan kasallangan va nazorat sifatida 10 bosh o'sha yoshdagi sog'lom analog jo'jalaridan foydalanildi.

Tajribaning 1-bosqichida jo'jalar analoglar tamoyili bo'yicha har birida 10 boshdan quyidagi 4 ta guruhga ajratildi: 1- guruh – sog'lom nazorat; 2-guruh – kasallangan nazorat; 3-guruh – tajriba guruhi bo'lib, kasal jo'jalarning 7 kunligidan boshlab Enrovit-O antibiotigidan 1 l suvga 0,5 ml miqdorida 5 kun davomida qo'llanildi; 4-guruh ham tajriba guruhi hisoblanib, kasal jo'jalarning 7 kunligidan boshlab yangi absorbent dori vositasi "Tokso-bond"ni 1 kg omixta yemga 0,5 gr miqdorida 10 kun davomida qo'llanildi (1-jadval). 2-guruh (kasallangan nazorat) jo'jalarida aksincha klinik holat bo'lib, Fuzarium zamburug'larining intensivligi va jo'jalarning zaharlanish holati uzluksiz saqlanishi oqibatida 2 bosh jo'ja nobud bo'lib, saqlanuvchanlik – 80 % va 1 bosh jo'janing o'rtacha vazni 480 gr ni tashkil etdi. 4-guruh (tajriba guruhi) jo'jalarini davolash uchun yangi absorbent dori vositasi "Tokso-bond" 0,5 g 1 kg yemga qo'llanilgan bo'lib, tajribaning 3-5-kunlari o'tkazilgan mikologik tekshiruvlarda Fuzariotoksikoz qayd etildi. Tajribadagi jo'jalarning 1 boshida o'lim kuzatildi.

2-bosqichida fuzariotoksikozning oldini olish va uning ta'sirini kamaytirish uchun, ozuqalar nazorat qilinib, parrandalarning immunitetini mustahkamlash uchun birinchi bosqichdagi singari jo'jalar analoglar qoidasi bo'yicha har birida 10 boshdan quyidagi 4 ta guruhga ajratildi: 1-guruh – sog'lom nazorat; 2-guruh – kasallangan nazorat; 3-guruh – tajriba guruhi bo'lib, kasal jo'jalarning 7 kunligidan boshlab Enrovit-O antibiotigidan 1 l suvga 0,8 ml miqdorida 5 kun davomida qo'llanildi; 4- guruh ham tajriba guruhi hisoblanib, kasal jo'jalarning 7 kunligidan boshlab absorbent dori vositasi Tokso-bondni 1 kg omuxta yemga 0,8 g miqdorida 10 kun davomida qo'llanildi.

